KO'P DARAJALI YONDASHUVNING MIKRO, MEZO VA MAKRO DARAJALARDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKLARINI ASOSLASH HAMDA MODEL ARXITEKTURASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK TAMOIYILLARI	1183
Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DAROMAD BAZASINING TARKIBI VA DINAMIKASI ("TURONBANK" ATB MISOLIDA)	1191
Togayev Salim Sobirovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KAPITAL TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI KAPITAL BAHOSINI MINIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARI	1196
Obidov Sanjar Omonxo'jayevich	
O'ZBEKISTON XIZMATLAR EKSPORTINING GEOGRAFIK TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI: GRAVITATSION MODEL ASOSIDA TAHLIL	1202
Qodirjonov Adhamjon	



AKSIONERLIK JAMIYATLARDA MOLIYAVIY INVESTITSİYALAR HISOB VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA YURITISH	1206
Suyunov Yorqin Bekmurodovich	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA TADBIRKORLIK INFRATUZILMASINING INSTITUTSIONAL OMILLARI	1212
Arifbayev Bobur Dilshodovich	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В РАМКАХ СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН – 2030»	1219
Аблаева Валентина Борисовна	
FINANCING A GREEN UNIVERSITY: MECHANISMS, MODELS, AND STRATEGIC DIRECTIONS FOR SUSTAINABLE CAMPUS DEVELOPMENT	1227
I. Imomov, F.Nishonov	
ПОНЯТИЕ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОГО МАРКЕТИНГА В УЗБЕКИСТАНЕ	1234
Шоев Алим Халмуратович	
ANALYZING UZBEKISTAN'S EU EXPORT TRENDS THROUGH THE GENERALIZED SYSTEM OF PREFERENCES PLUS (GSP+) SCHEME	1239
Aziz Zikriyoyev, Rajabova Malika Nuriddin qizi	
ANALYZING UZBEKISTAN'S EU EXPORT TRENDS THROUGH THE GENERALIZED SYSTEM OF PREFERENCES PLUS (GSP+) SCHEME	1239
Aziz Zikriyoyev, Rajabova Malika Nuriddin qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSILAR HISOBIGA ASOSLANGAN XOLATDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI TASHKIL ETISH TARTIBI	1247
Xasanova Xusnoraxon Faxriddinova	
HUDUDIY MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA INVESTITSION FAOLLIKNING ROLI VA UNING RIVOJLANISH MEKANIZMLARI	1251
Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ УНИВЕРСИТЕТОВ	1257
Менглиева Индира Баходировна	
ЦЕНООБРАЗОВАНИЕ НА ЭНЕРГЕТИЧЕСКОМ РЫНКЕ: ВЫЗОВЫ И ВОЗМОЖНОСТИ	1261
Умарбеков Бахром Ботирбекович	
O'ZBEKISTON QAYTA SUG'URTA TIZIMIDA "ALTERNATIVE RISK CAPITAL"NI JORIY ETISH: IQTISODIY MODEL, EMPIRIK TAHLIL VA ME'YORIY TAKLIFLAR (JAHON TAJRIBASI MISOLIDA)	1270
Jorabaev Jasur Abduraxmanovich	
O'ZBEKISTON QAYTA SUG'URTA TIZIMIDA ALTERNATIVE RISK CAPITAL'NI JORIY ETISH: IQTISODIY MODEL, EMPIRIK TAHLIL VA ME'YORIY TAKLIFLAR (JAHON TAJRIBASI MISOLIDA)	1276
Jo'rabayev Jasur Abdurahmonovich	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA BOSHQARUV KADRLARINING LIDERLIK SALOHİYATINI BAHOLASH MASALALARI	1282
Rasulov Shohruxbek G'ulomjon o'g'li, Ibragimov Isroil Usmonovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA MEVA VA SABZAVOT ISHLAB CHIQRISH KO'RSATKICHLARINING XO'JALIKLAR TOIFALARI BO'YICHA TAHLILI	1286
Majidova Dilnoza Bahromovna	
TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTNING (SI) TA'SIRI	1290
Begimqulov Javohirbek Jo'raqul o'g'li	
MINTAQADA SANOAT TARMOQLARI RIVOJLANISHIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMI VA ZARURLIGI	1300
Xodjaeva Feruza Komilovna	
TOSHKENT VILOYATI HUDUDLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI IQTISODIY FARQLAR TAHLILI	1305
Saidakbarov Saidazam Aziz o'g'li	
KORXONALARDA UMUM ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBİ	1309
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	



ONLAYN BRONLASH TIZIMLARI: TURLARI, XUSUSIYATLARI VA AJRALIB TURUVCHI BELGILARI	1314
S.S. Ismatillaeva	
BUDJET TIZIMI BUDJETLARI IJROSI USTIDAN MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1320
Saidova Kamolat Farhodovna	
КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ПОРОЖДАЮЩИХ ЖЕНСКУЮ ПРЕСТУПНОСТЬ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ	1326
Нуриллоева Заррина Зокиржоновна	
SAMARQAND VILOYATI MEHMONXONA XO'JALIGIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TURISTLAR OQIMINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1331
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin qizi	
SOLIQ YUKINI HISOBLASH VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILINING METODOLOGIK JIHATLARI	1334
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА В МАЛОМ БИЗНЕСЕ: ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ РЕЗЕРВЫ РОСТА И РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ ПЕРСОНАЛА.....	1341
Аминжоновна Вазира Мамасидиковна	
DZYUDUCHILARDA USHLAB OLISH (KUMI-KATA) STRATEGIYASINING MUSOBAQA NATIJALARIGA TA'SIRI.....	1350
Shermatov Gulom Qaxxorovich	
G'AZNACHILIK TIZIMIDA RISKLARNI ANIQLASH VA NAZORAT TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	1357
Xasanov Adiz Xusenovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI HAMDA UNI QISQARTIRISHGA QARATILGAN IQTISODIY ISLOHOTLAR.....	1363
Beknazarov Behzod Baxtiyorovich	
IMPROVEMENT OF THE COMMERCIAL BANK PRIVATIZATION PROCESS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	1368
Djumaniyazov Islam Karimbayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SOHASI INVESTITSION VA EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI	1374
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENTI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	1378
Madaminov Bekzod Allayarovich	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA XAVF OMILLARI SHAROITIDA AGRAR BIZNESDA XARAJATLAR TAHLILI VA XATARLARNI BOSHQARISH.....	1383
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINING BOSHQARUVIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA YASHIL IQTISODIYOTNING O'RNI	1387
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ ЭКСПОРТНОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ НА ОСНОВЕ ЭФФЕКТИВНОЙ ЛОГИСТИКИ И УПРАВЛЕНИЯ ЦЕПОЧКАМИ ПОСТАВОК	1392
Каримова Хулкар Рахманали кизи, Махмутуллоева Севинч Хабибулла кизи	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYALASHNING METODOLOGIK ASOSLARI	1399
Norova Nozima Nabiyeвна	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1406
Ahmedova Dilnoza Qalandar qizi	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING EKOLOGIK MUVOZANATINI SAQLASH ORQALI BARQAROR RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI (NAVOIY VILOYATI TAJRIBASI)	1411
Barnoqulova Marjona Otabek qizi	



KORXONALARDA ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL, GOVERNANCE) HISOBOTLARINING AUDITINI TASHKIL ETISH VA BAHOLASH MEXANIZMLARI.....	1417
Xolikov Ravshan Anvar o'g'li	
SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1420
Omonov Olim Murodullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASH MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	1424
Sharifi Abdul Fatah	
TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR.....	1430
Sadikov Q.M.	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	1434
Kurbosheva Mohira Xafizovna	
MURAKKAB LOYIHALARDA RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	1439
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
ЭФФЕКТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ДЕБИТОРСКОЙ И КРЕДИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТЬЮ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	1442
Камолова Феруза Кахрамоновна	
O'ZBEKISTON HUDUDIY RIVOJLANISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK YO'NALISHLARI.....	1448
Ma'murov Baxtiyor Xolmatjanovich	
O'ZBEKISTONDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1456
Ismailova Gulruh Faxriddinovna	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ ПЕРСОНАЛОМ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ: ЦИФРОВИЗАЦИЯ, УПРАВЛЕНИЕ ТАЛАНТАМИ И МОТИВАЦИЯ.....	1462
Абилов Эльман Худаверди оглы	
O'ZBEKISTON BANKLARINING AML TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT: STRATEGIK ZARURAT VA JORIY ETISH YO'LLARI.....	1468
Rashidov Avazbek Raximovich	
GLOBALASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TUG'ILISH KO'RSATKICHLARI STATISTIK TAHLILI.....	1475
Abduraxmanov Abduazim Djalaliddinovich	
BANK KREDITINING KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI RESURSLAR BILAN TA'MINLASHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1483
Bo'tayev O'tkir Eshboevich	



BANK KREDITINING KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI RESURLAR BILAN TA'MINLASHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

Bo'tayev O'tkir Eshboevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bank kreditining kichik biznes subyektlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdagi roli tahlil qilingan. Unda kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji, mavjud muammolar, bank kreditlashning zamonaviy tendensiyalari hamda kredit resurslaridan foydalanish samaradorligi masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bank kreditlari kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi va ularning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: bank krediti, kichik biznes, moliyaviy resurslar, kredit mexanizmi, bank-mijoz munosabatlari, biznes rivojlanishi, moliyaviy barqarorlik.

Abstract. This article analyzes the role of bank credit in providing small business entities with financial resources. It examines the challenges related to financial resource provision, current trends in bank lending, and the efficiency of using credit resources. The findings indicate that bank loans play a significant role in ensuring the financial stability of small businesses and contribute to their sustainable development.

Key words: bank credit, small business, financial resources, credit mechanism, bank-client relations, business development, financial stability.

Аннотация. В статье проанализирована роль банковского кредита в обеспечении субъектов малого бизнеса финансовыми ресурсами. Рассмотрены проблемы финансового обеспечения малого бизнеса, современные тенденции банковского кредитования, а также вопросы эффективности использования кредитных ресурсов. По результатам исследования установлено, что банковские кредиты играют важную роль в обеспечении финансовой устойчивости субъектов малого бизнеса и способствуют их стабильному развитию.

Ключевые слова: банковский кредит, малый бизнес, финансовые ресурсы, кредитный механизм, отношения банк-клиент, развитие бизнеса, финансовая устойчивость.f

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jamiyatning iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga hissa qo'shish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish bilan bir qatorda, davlat byudjetiga soliq tushumlarini ta'minlash orqali mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi [1].

Kichik biznes subyektlarining samarali faoliyati uchun ularni moliyaviy resurslar bilan yetarli darajada ta'minlash zarur. Biroq ko'plab tadbirkorlar o'z bizneslarini rivojlantirish uchun yetarli miqdorda shaxsiy mablag'larga ega emas. Shu sababli ularga qo'shimcha moliyalashtirish manbalari talab etiladi, ular orasida bank krediti muhim o'rin egallaydi. Banklarning kreditlash jarayoni orqali kichik biznes subyektlari o'z faoliyatini kengaytirish, asosiy vositalarni modernizatsiya qilish, aylanma mablag'larni to'ldirish hamda boshqa moliyaviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo'ladilar [2].

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, imtiyozli kreditlash dasturlari joriy etildi, kreditlash shartlari soddalashtirildi hamda tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi [3]. Biroq bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatlari va ularning samaradorligi masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi bank kreditining kichik biznes subyektlarini resurslar bilan ta'minlashdagi rolini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini taklif qilishdan iborat.



Tadqiqot davomida bank kreditlashning zamonaviy tendensiyalari, kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslar bilan ta'minlanish darajasi, kreditlardan foydalanish samaradorligi hamda kredit mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish va bank kreditlashning nazariy hamda amaliy jihatlarini ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlarni tahlil qilish kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish muammolarini chuqurroq anglash hamda bank kreditining ular faoliyatidagi o'rnini baholash imkonini beradi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim Sh. Mustafakulov o'z tadqiqotlarida kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, kichik biznesni moliyalashtirishda bank kreditlarining mavjudligi va ulardan foydalanish shartlari tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [4]. Shuningdek, muallif tijorat banklari kredit portfelida kichik biznes subyektlariga ajratiladigan kreditlar ulushini oshirish uchun bank-mijoz munosabatlarini takomillashtirish muhimligini qayd etadi.

Rossiyalik olim V.V. Yanovskiy o'z tadqiqotlarida kichik biznes subyektlarini bank krediti bilan ta'minlash masalasini ko'rib chiqqan. Uning fikricha, tijorat banklarining kredit siyosati kichik biznes subyektlarining o'ziga xos xususiyatlari va ehtiyojlariga moslashtirilishi lozim [5]. Bundan tashqari, muallif kichik biznes subyektlari uchun kredit olish jarayonini soddalashtirish hamda kreditlash dasturlarini kengaytirish zarurligini ta'kidlaydi.

Xorijiy olimlardan A. Berger va G. Udell kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish muammolarini chuqur tadqiq etgan. Ularning izlanishlariga ko'ra, kichik biznes subyektlari ko'pincha "axborot asimmetriyasi" muammosiga duch keladi, bu esa ularning kredit olish imkoniyatlarini cheklaydi [6]. Mualliflar banklar va kichik biznes subyektlari o'rtasida uzoq muddatli hamkorlik munosabatlarini shakllantirish orqali mazkur muammoni kamaytirish mumkinligini ta'kidlaydilar.

J. Stiglitz va A. Weiss o'zlarining klassik tadqiqotlarida kredit ratsionlash nazariyasini ishlab chiqqan bo'lib, unda kichik biznes subyektlariga kredit ajratish jarayoniga alohida e'tibor qaratilgan. Ularning fikricha, banklar kreditlarni taqsimlashda asimmetrik axborot muammosi sababli kichik biznes subyektlariga nisbatan ehtiyotkor yondashuvni qo'llaydi [7]. Natijada, bu holat ayrim kichik biznes subyektlarining kredit olish imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim A. Qodirov o'z tadqiqotlarida O'zbekistonda kichik biznesni moliyalashtirishning zamonaviy holatini tahlil qilgan. Uning fikricha, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va imtiyozli kreditlash dasturlari kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, biroq ushbu dasturlarning samaradorligini yanada oshirish zarur [8].

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish va bank kreditlash masalalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida bank kreditining kichik biznes subyektlarini resurslar bilan ta'minlashdagi roli yetarli darajada kompleks tahlil qilinmagan. Shu sababli mazkur masalani yanada chuqurroq o'rganish hamda kredit mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot bank kreditining kichik biznes subyektlarini resurslar bilan ta'minlashdagi rolini o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning metodologik asosini ilmiy bilishning quyidagi usullari tashkil etadi [5]:

1. Tizimli yondashuv – kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish tizimini yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish hamda uning alohida elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi.
2. Tarixiy-mantiqiy tahlil – kichik biznes subyektlarini bank krediti bilan ta'minlash tizimining shakllanishi, rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.
3. Statistik tahlil – rasmiy statistik ma'lumotlarni o'rganish orqali kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi, dinamikasi, tarkibi hamda samaradorligini baholash imkonini beradi.
4. Qiyosiy tahlil – turli mamlakatlar tajribasini o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.
5. Abstrakt-mantiqiy tahlil – olingan natijalarni umumlashtirish, ilmiy xulosalar chiqarish hamda kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari, tijorat banklarining yillik hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlari, shuningdek, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, maqolalar va internet manbalari tahlil qilindi.



Tadqiqot doirasida quyidagi asosiy masalalar ko'rib chiqiladi [5]:

- kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlarining nazariy asoslari;
- bank kreditining kichik biznes subyektlari faoliyatidagi o'rni va ahamiyati;
- O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini bank krediti bilan ta'minlashning zamonaviy holati;
- kichik biznes subyektlarini kreditlash jarayonida mavjud muammolar;
- kichik biznes subyektlarini resurslar bilan ta'minlashda bank kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari.


TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlari moliyaviy resurslarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish jarayonini ta'minlaydigan usullar, vositalar hamda dastaklar majmuasini o'z ichiga oladi.

Moliyalashtirish mexanizmlari ichki va tashqi manbalarga bo'linadi. Ichki moliyalashtirish manbalariga korxonaning o'z mablag'lari (sof foyda, amortizatsiya ajratmalari) kiradi. Tashqi manbalarga esa bank krediti, lizing, faktoring, venchur moliyalashtirish, davlat subsidiyalari hamda boshqa moliyaviy instrumentlar kiradi. Bank krediti kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishning eng keng tarqalgan va muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

Kichik biznes subyektlari milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, innovatsion rivojlanish, bandlikni ta'minlash hamda iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shadi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1 201,6 mingta bo'lib, shundan kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda) 493,0 mingta, yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT) 284,4 mingta, dehqon xo'jaliklari 395,6 mingta, oilaviy tadbirkorlik subyektlari 5,6 mingta, hunarmandlar 22,1 mingta hamda import tovarlari sotuvchilari 0,9 mingta tashkil etgan.

2025-yil yanvar–dekabr oylarida yalpi ichki mahsulot (YAIM) tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan hajm 923 514,6 mlrd so'mni tashkil etib, umumiy YAIM hajmidagi ulushi 52,2 foizni tashkil qilgan (1-rasm) [12].



1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi hajmi dinamikasi

Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlari moliyaviy resurslarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish jarayonini ta'minlaydigan usullar, vositalar hamda dastaklar majmuasini o'z ichiga oladi. Moliyalashtirish mexanizmlari ichki va tashqi manbalarga bo'linadi. Ichki moliyalashtirish manbalariga korxonaning o'z mablag'lari (sof foyda, amortizatsiya ajratmalari) kiradi. Tashqi manbalarga esa bank krediti, lizing, faktoring, venchur moliyalashtirish, davlat subsidiyalari hamda boshqa moliyaviy manbalar kiradi [9].

Bank krediti kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishning eng keng tarqalgan va muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Bank kreditining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat [5]:

- kredit mablag'larini tezkor jalb qilish imkoniyati;
- biznesni rivojlantirish uchun qo'shimcha moliyaviy resurslar olish;
- moliyaviy oqimlarni boshqarish va rejalashtirish imkoniyati;
- kredit tarixini shakllantirish;
- foiz to'lovlari hisobiga soliq bazasining kamayishi.

Shu bilan birga, bank kreditining ayrim cheklavlari ham mavjud:

- foiz stavkalarining nisbatan yuqoriligi;
- kredit shartlarining qat'iyligi;
- garov ta'minotining talab qilinishi;
- kredit olish jarayonida hujjatlar hajmining ko'pligi;
- kredit majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq moliyaviy risklar.




Kichik biznes subyektlari uchun bank kreditining ahamiyati ularning hayot sikli bosqichlariga bog'liq. Yangi tashkil etilgan korxonalar uchun bank krediti dastlabki kapitalni shakllantirishning muhim manbasi bo'lsa, o'sish va rivojlanish bosqichidagi korxonalar uchun biznesni kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda bozordagi mavqeini mustahkamlash imkonini beradi.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash va ularga bank kreditlarini ajratish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda YAIMning 6,5 foizlik o'sishiga xizmatlar sohasi 3,4 foiz, sanoat tarmog'i 1,6 foiz, qurilish 0,6 foiz va qishloq xo'jaligi 0,6 foiz hissa qo'shgan. Bunda xizmatlar sohasi va sanoat tarmog'ining hissasida 2023-yilga nisbatan o'sish kuzatilgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi ulushida nisbiy pasayish qayd etilgan. Iqtisodiyot tarmoqlaridan xizmatlar sohasi (+7,7%) va sanoat tarmog'ida (+6,8%) yuqori o'sish sur'atlari kuzatilib, 2024-yilda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy yo'nalishlar bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, qurilish ishlari hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi esa 3,0 foizga oshgan.


2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 362 910,0 mlrd so'mni tashkil etib, umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 61,4 foizga teng bo'ldi. O'sish sur'ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 129,9 foizni tashkil etdi (2–3-rasmlar) [12].



2-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi dinamikasi

Tadbirkorlik subyektlarining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, investitsion loyihalarni moliyalashtirish, shuningdek, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholining bandligini ta'minlash va qo'shimcha daromad manbalarini kengaytirishda banklarning o'ri va roliga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2024-yilda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash doirasida 539 mingdan ortiq loyihalarga tijorat banklari tomonidan jami 160 trln so'm miqdorida kredit mablag'lari yo'naltirildi.



3-rasm. 2024-yilda toifalar kesimida tadbirkorlik faoliyatiga ajratilgan kreditlar ulushi

Ushbu ma'lumotlar kichik biznes subyektlarining asosiy kapitalga investitsiyalarni amalga oshirish uchun uzoq muddatli kreditlarga ehtiyoji yuqori ekanligini ko'rsatadi. O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini kreditlashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:



1. Imtiyozli kreditlash dasturlari – davlat tomonidan subsidiyalashtiriladigan past foiz stavkali kreditlar;
2. Mikrokreditlash – kichik va mikro tadbirkorlik subyektlari uchun kichik miqdordagi kreditlar;
3. Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun kreditlar;
4. Investitsion kreditlar – asosiy vositalarni xarid qilish va modernizatsiya qilish uchun;
5. Eksportga yo'naltirilgan kichik biznes subyektlarini kreditlash.

So'nggi yillarda O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini kreditlashni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator dasturlar amalga oshirildi, jumladan:

- "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida imtiyozli kreditlar ajratish;
- yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash dasturi;
- ayollar tadbirkorligini rivojlantirish dasturi;
- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida kichik biznesni kreditlash.

O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini kreditlash sohasida sezilarli natijalarga erishilgan bo'lsa-da, ushbu yo'nalishda bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda:

1. Foiz stavkalarining nisbatan yuqoriligi – bu kredit resurslarining qiymatini oshirib, kichik biznes subyektlarining ulardan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi. 2025-yil yanvar–dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ish va xizmat)lar importi 25 390,3 mln AQSH dollarini tashkil etib, jami import hajmining 53,6 foiziga teng bo'lgan.

2. Garov ta'minoti muammosi – ko'plab kichik biznes subyektlari yetarli garov bazasiga ega emas. Garov qiymatining kredit summasiga nisbati yuqoriligi kredit olish jarayonini murakkablashtiradi.

3. Kreditlash jarayonining murakkabligi – kreditni rasmiylashtirish jarayoni ko'p bosqichli va vaqt talab etadi. Hujjatlar hajmining kattaligi hamda rasmiy tartib-taomillar tadbirkorlar uchun qo'shimcha xarajat va vaqt yo'qotishlariga sabab bo'ladi.

4. Axborot asimmetriyasi – kichik biznes subyektlarining moliyaviy hisobotlari yetarlicha shaffof emasligi yoki kredit tarixining mavjud emasligi banklar uchun risk darajasini oshiradi.

Kichik biznes subyektlarini bank krediti bilan ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Foiz stavkalarini pasaytirish – makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va bank tizimida raqobatni kuchaytirish orqali kredit resurslari narxini kamaytirish;

2. Garov talablarini yumshatish – garovsiz yoki qisman kafolat asosidagi kreditlashni kengaytirish, qabul qilinadigan aktivlar ro'yxatini kengaytirish;

3. Kreditlash jarayonini soddalashtirish – hujjatlar sonini qisqartirish va kredit ajratish muddatlarini optimallashtirish;

4. Kredit axborot tizimlarini rivojlantirish – kredit byurolari faoliyatini kuchaytirish va ma'lumotlar bazasini kengaytirish;

5. Uzoq muddatli kreditlashni rag'batlantirish – banklarning resurs bazasini mustahkamlash va uzoq muddatli depozitlarni jalb qilish;

6. Hududiy nomutanosiblikni kamaytirish – chekka hududlarda bank infratuzilmasini rivojlantirish va masofaviy xizmatlarni kengaytirish;

7. Moliyaviy savodxonlikni oshirish – tadbirkorlar uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqish;

8. Davlat kafolat mexanizmlarini kengaytirish – imtiyozli kreditlash dasturlarini takomillashtirish;

9. Bank–mijoz munosabatlarini mustahkamlash – uzoq muddatli hamkorlikni yo'lga qo'yish;

10. Innovatsion kreditlash usullarini joriy etish – kraudlending, P2P kreditlash va venchur kapitali mexanizmlarini rivojlantirish.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi ularning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistondagi kichik biznes subyektlarining 68 foizi moliyaviy resurslar yetishmasligini asosiy rivojlanish to'sig'i sifatida qayd etgan. Bu esa kreditlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining 45 foizi biznesni boshlash bosqichida bank kreditidan foydalanadi, rivojlanish bosqichida esa bu ko'rsatkich 63 foizga yetadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesni kreditlash uchun maxsus institutlar faoliyat yuritadi. Masalan, AQSHda Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash ma'muriyati (SBA) kafolatlari asosida banklar tomonidan kreditlar ajratiladi.

Ushbu tajribani O'zbekistonda ham qo'llash, davlat kafolatlari mexanizmlarini kengaytirish hamda kichik biznes uchun maxsus kredit dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy raqamli texnologiyalarning rivojlanishi kichik biznesni moliyalashtirish sohasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda onlayn kreditlash platformalari rivojlanib, kredit olish jarayonining tezkorligi va qulayligi oshmoqda. Raqamli moliyaviy xizmatlarni yanada kengaytirish kichik biznes subyektlari uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Bank krediti kichik biznes subyektlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashning eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda kichik biznes subyektlarini bank krediti bilan ta'minlash borasida sezilarli natijalarga erishilgan bo'lsa-da, ushbu sohada hali ham bir qator tizimli muammolar mavjud.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi muntazam ravishda o'sib bormoqda, bu esa kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatning amaliy natijasidir. Biroq foiz stavkalarining nisbatan yuqoriligi, garov ta'minoti muammosi, kreditlash jarayonining murakkabligi, axborot asimmetriyasi, uzoq muddatli kreditlarning yetishmasligi, hududiy nomutanosiblik hamda kreditdan foydalanish samaradorligining pastligi kabi omillar kichik biznes subyektlarining kredit olish imkoniyatlarini cheklab kelmoqda.

Kichik biznes subyektlarini bank krediti bilan ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Foiz stavkalarini pasaytirish uchun makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va bank tizimida sog'lom raqobatni kuchaytirish choralari ko'rish.

2. Garovsiz yoki yumshatilgan garov talablari asosida kreditlashni kengaytirish, garov sifatida qabul qilinadigan aktivlar ro'yxatini kengaytirish hamda garov qiymatining kredit summasiga nisbatini optimallashtirish.

3. Kredit olish jarayonini soddalashtirish, talab qilinadigan hujjatlar sonini kamaytirish va kreditni rasmiylashtirish muddatlarini qisqartirish.

4. Kredit byurolari faoliyatini rivojlantirish va kichik biznes subyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini kengaytirish orqali axborot asimmetriyasi muammosini kamaytirish.

5. Investitsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash maqsadida uzoq muddatli kreditlashni kengaytirish, banklarning resurs bazasini mustahkamlash va uzoq muddatli depozitlarni jalb qilishni rag'batlantirish.

6. Moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, bu orqali tadbirkorlarning kredit mablag'laridan samarali foydalanish hamda biznesni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish.

7. Imtiyozli kreditlash dasturlarini kengaytirish va davlat kafolati mexanizmlarini takomillashtirish.

8. Banklar va kichik biznes subyektlari o'rtasida uzoq muddatli va ishonchli hamkorlik munosabatlarini shakllantirish.

9. Kraudlending, P2P kreditlash va venchur kapitali kabi zamonaviy moliyalashtirish usullarini rivojlantirish orqali moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi kichik biznes subyektlarining bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, ularning moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasini oshiradi hamda natijada iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va aholi farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bank kreditining kichik biznes subyektlarini resurslar bilan ta'minlashdagi roli nihoyatda muhimdir. Kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish va kichik biznes subyektlarining kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish O'zbekistonda kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Foydaniilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qodirov, A. (2022). O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish: muammolar va istiqbollar. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 3(4), 45–58.
2. Mustafakulov, Sh. (2021). Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. Moliya va bank ishi, 6(2), 112–125.
3. Mustafakulov, Sh. (2023). Bank-mijoz munosabatlarini takomillashtirish orqali kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rivojlantirish. Iqtisodiyot va ta'lim, 1(5), 78–92.
4. Xodjayeva, J.R. (2025). Bank kreditining kichik biznes subyektlarini resurslar bilan ta'minlashdagi roli. Innovations in Science and Technologies, 2, ISSN 3030-3451.
5. Yanovsky, V.V. (2021). Maloye predprinimatelstvo: problemy kreditovaniya [Kichik tadbirkorlik: kreditlash muammolari]. Vestnik Finansovogo Universiteta, 5(3), 67–82.
6. Berger, A., & Udell, G. (2020). Small business credit availability and relationship lending: The importance of bank organizational structure. The Economic Journal, 112(477), F32–F53.
7. Stiglitz, J., & Weiss, A. (1981). Credit rationing in markets with imperfect information. The American Economic Review, 71(3), 393–410.
8. Qodirov, A. (2023). O'zbekistonda kichik biznesni moliyalashtirishning zamonaviy holati. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 5(2), 34–47.
9. Abdurahmonov, O. (2022). Kichik biznesni moliyalashtirish manbalari va ulardan samarali foydalanish yo'llari. Moliya, 4(1), 56–68.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). 2022-yil uchun yillik hisobot. Toshkent.
11. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2025). Rasmiy statistika ma'lumotlari. <https://www.stat.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>